

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

ITALYAN VA O'ZBEK ERTAKLARIDA SARLAVHALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Ergashova Baxora Sayfillo qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

Email: ergashova.baxoram@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada italyan va o'zbek xalq ertaklari sarlavhalarining lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ertak sarlavhalarining semantik tuzilishi, milliy-madaniy mazmuni, ramziy ma'nolari hamda ularning xalq mentaliteti va qadriyatlarini aks ettirishdagi o'rni o'rganiladi. Shuningdek, sarlavhalarining nominativ, pragmatik va kommunikativ funksiyalari lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. O'zbek va italyan ertaklarida uchraydigan antroponimlar, zoonimlar, fitonimlar, mifologik obrazlar va madaniy kodlar misollar asosida qiyoslanadi. Tadqiqot natijalari ikki xalqning milliy dunyoqarashi, tarixiy taraqqiyoti va madaniy qadriyatlari ertak sarlavhalarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, ertak, sarlavha, madaniy kod, milliy mentalitet, semantika, italyan ertaklari, o'zbek ertaklari, folklor.

LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF TITLES IN ITALIAN AND UZBEK FAIRY TALES

Ergashova Bakhora Sayfillo qizi

Uzbekistan State University of World Languages

Independent researcher

Annotation. This article presents a comparative linguocultural analysis of the titles of Italian and Uzbek folk tales. The study examines the semantic structure, national-cultural meanings, symbolic features, and cultural values reflected in fairy tale titles. Particular attention is paid to the nominative, pragmatic, and communicative functions of titles from the perspective of linguocultural studies. Anthroponyms, zoonyms, phytonyms, mythological images, and cultural codes occurring in Italian and Uzbek fairy tales are analyzed comparatively. The findings demonstrate that fairy tale titles embody the historical development, cultural identity, and national worldview of both peoples.

Keywords: linguoculturology, fairy tale, title, cultural code, national mentality, semantics, Italian fairy tales, Uzbek fairy tales, folklore.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ya-dif-y2026v2i17/n08>

Kirish. XXI asr tilshunosligida til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jadal rivojlanmoqda. Zamonaviy lingvistika endilikda tilni faqat grammatik yoki leksik tizim sifatida emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi, madaniy qadriyatlarini yetkazuvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin etmoqda. Shu jihatdan lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi muhim fanlararo yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Lingvokulturologik tadqiqotlar asosida folklor alohida ahamiyatga ega bo'lib, xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, urf-odatlar, diniy qarashlari, axloqiy me'yorlari va estetik didini aks ettiruvchi asl madaniy manba hisoblanadi. Folklor janrida ertaklar keng milliy qatlamni tashkil etib, ularda nafaqat syujet va obrazlar, balki ularning sarlavhalari ham katta semantik va pragmatik yukni o'z zimmasiga oladi. Sarlavha o'quvchini matn mazmuniga

tayyorlaydi, ertakning asosiy g'oyasi haqida dastlabki tasavvurni shakllantiradi va milliy madaniyatga oid muhim belgilarni o'zida aks ettiradi.

Bugungi kunda sarlavha lingvistikasi matnshunoslik, pragmalingvistika va diskurs tahlilining muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Sarlavha matnning eng ixcham, ammo eng informativ qismi bo'lib, u nominativ, informativ, ekspressiv, kommunikativ va pragmatik funksiyalarni bajaradi. Ayniqsa folklor matnlarida sarlavhalar xalqning madaniy kodlarini, milliy stereotiplarini va tarixiy tafakkurini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalq ertaklari Sharq sivilizatsiyasining ko'p asrlik madaniy merosini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, italyan xalq ertaklari Yevropa madaniyati, qadimgi Rim sivilizatsiyasi, xristian an'analari va O'rta yer dengizi xalqlarining folklor qatlamlarini aks ettiradi. Har ikkala xalq ertaklarining sarlavhalarida milliy mentalitet, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashning o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek ertaklarida "Zumrad va Qimmat", "Uch og'a-ini botirlar", "Boy ila kambag'al", "Susambil", "Oltin tarvuz" kabi sarlavhalar ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qarama-qarshiliklar, qahramonlik va xalqona ramzlarni ifodalaydi. Italyan ertaklarida esa "Rosmarina", "Le tre melagrane", "Giovannin senza paura", "Il pescatore", "Il principe ranocchio" kabi sarlavhalar shaxs nomlari, tabiat unsurlari, diniy va mifologik obrazlar orqali milliy madaniyatni ifodalovchi belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Ertak sarlavhalarining lingvokulturologik tahlili nafaqat ularning semantik xususiyatlarini, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, tarixiy xotirasi va madaniy kodlarini ham aniqlash imkonini beradi. Shu sababli bunday tadqiqotlar qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatshunoslik hamda folklorshunoslik uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashtirish sharoitida turli xalqlar madaniyatini qiyosiy o'rganish millatlararo madaniy muloqotni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, italyan va o'zbek xalqlari folklorini lingvokulturologik nuqtai nazardan qiyoslash ikki xalqning umumiy va farqli madaniy qadriyatlarini aniqlash, tarjima jarayonida milliy koloritni saqlash hamda madaniyatlararo kommunikatsiyani takomillashtirish imkonini beradi.

Asosiy qism. Lingvokulturologiya zamonaviy tilshunoslikning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, u til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini, til birliklarida aks etuvchi milliy-madaniy xususiyatlarni hamda xalqning dunyoqarashini o'rganadi. XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil fan sifatida shakllangan ushbu yo'nalish bugungi kunda qiyosiy tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnolingvistika va tarjimashunoslik bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Lingvokulturologiya atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha izohlanadi. V.V. Vorobyov uni "til orqali madaniyatni va madaniyat orqali tilni o'rganuvchi fan" deb ta'riflaydi. Olimning fikricha, har bir til birligi xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va mentalitetini o'zida mujassamlashtiradi. Til birliklarini faqat grammatik yoki leksik jihatdan emas, balki ularning madaniy mazmunini hisobga olgan holda tahlil qilish zarur. V.A. Maslova esa lingvokulturologiyani "til va madaniyatning o'zaro ta'sirini inson omili orqali tadqiq etuvchi fan" sifatida tavsiflaydi. U til birliklarining semantik tuzilishida xalqning qadriyatlari, urf-odatlar va dunyoqarashi mujassam ekanligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari yana bir qator olimlar jumladan, V.N. Teliya til madaniyatning "genetik kodi" vazifasini bajaruvchi omil ekanligini tasdiqlasa, A. Wierzbicka til birliklarini madaniy semantika orqali izohlash zarurligini ilgari suradi. U har bir xalqning dunyoni idrok etish usuli til orqali namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Olim tomonidan ishlab chiqilgan Natural Semantic

Metalanguage (NSM) nazariyasi bugungi kunda lingvokulturologik tadqiqotlarning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida ham lingvokulturologik tadqiqotlar so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Sh. Safarov, N. Mahmudov, D. Xudoyberganova, Z. Iskandarova va boshqa olimlarning ilmiy ishlari til va madaniyatning uzviy bog'liqligini o'rganishga bag'ishlangan. Ayniqsa, Sh. Safarov til birliklarining pragmatik va madaniy xususiyatlarini tahlil qilgan bo'lsa, N. Mahmudov milliy tafakkurning til orqali ifodalanishini keng yoritgan.

Folklor lingvokulturologiyaning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biridir. Chunki xalq og'zaki ijodi namunalarida xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, urf-odatlar, diniy qarashlari, mehnat madaniyati va estetik didi mujassam bo'ladi. Ertaklar esa folklorning eng qadimiy va eng ommabop janrlaridan biri hisoblanadi.

Ertaklarning eng muhim elementlaridan biri – sarlavha hisoblanadi. Sarlavha o'quvchining matn haqidagi dastlabki tasavvurini shakllantiradi va ertak mazmunining qisqa modeli vazifasini bajaradi. Shu sababli zamonaviy matn lingvistikasida sarlavha matnning "kuchli pozitsiyasi" sifatida baholanadi. Sarlavhaning nominativ, informativ, kommunikativ, pragmatik, estetik va lingvokulturologik funksiyalardan iborat.

Lingvokulturologik nuqtai nazardan aynan lingvokulturologik funksiya alohida ahamiyatga ega. Chunki sarlavhada xalqning madaniy xotirasi, milliy qadriyatlari va tarixiy tajribasi mujassamlashgan bo'ladi.

Lingvokulturologiyada konsept xalqning ongida shakllangan va til birliklari orqali ifodalanadigan madaniy tushuncha sifatida qaraladi. Ertak sarlavhalari aynan ana shunday konseptlarni ixcham shaklda ifodalovchi til birliklaridan biridir. Sarlavha nafaqat matnni nomlaydi, balki xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlari va dunyoqarashini ham aks ettiradi.

O'zbek va italyan ertaklari sarlavhalarida quyidagi asosiy lingvokulturologik konseptlar kuzatiladi: oila, botirlik, ezgulik, sehr, mehnat, tabiat, hokimiyat, boylik, adolat, saxovat.

Mazkur konseptlar ikki xalqning tarixiy taraqqiyoti, diniy qarashlari, urf-odatlar va milliy mentalitetini ifodalashda muhim o'rin tutadi.

Ertak sarlavhasi asarning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u ertak mazmuni, asosiy qahramoni yoki bosh g'oyasi haqida dastlabki tasavvurni shakllantiradi. Lingvokulturologik nuqtai nazardan sarlavha xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlar, dunyoqarashi va madaniy xotirasini o'zida aks ettiruvchi til birligi hisoblanadi. Shu sababli ertak sarlavhalarini tahlil qilish orqali muayyan xalqning madaniy xususiyatlarini aniqlash mumkin.

O'zbek xalq ertaklarida "Zumrad va Qimmat", "Boy ila kambag'al", "Uch og'a-ini botirlar", "Oltin tarvuz", "Susambil", "Kenja botir", "Bulbuligo'yo" va "Ochil dasturxon" kabi sarlavhalar keng uchraydi. Ushbu sarlavhalarda oilaviy qadriyatlar, aka-uka munosabatlari, mehnatsevarlik, saxovat, halollik, jasorat va sabr kabi milliy qadriyatlar aks etadi.

Masalan, "Boy ila kambag'al" ertagi sarlavhasi boylik va kambag'allikni qarama-qarshi qo'yish orqali insonning asl qadri moddiy boylikda emas, balki halollik, mehnatsevarlik va odob-axloqda ekanligini ifodalaydi. "Uch og'a-ini botirlar" sarlavhasida esa o'zbek xalqining oilaparvarlik, aka-uka birdamligi va jasoratni ulug'lash kabi qadriyatlari namoyon bo'ladi.

Italyan xalq ertaklari sarlavhalarida esa ko'proq alohida qahramonlar, tabiat unsurlari va mifologik obrazlar uchraydi. Jumladan, "Giovannin senza paura", "Rosmarina", "Le tre

melagrane", "Il pescatore", "Il Re Porco" va boshqa ertaklar sarlavhalari italyan xalqining tarixiy-madaniy qarashlarini aks ettiradi.

Masalan, "Rosmarina" sarlavhasida rozmarin o'simligi poklik, sadoqat va muhabbat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. "Le tre melagrane" ("Uchta anor") ertagida esa anor hosildorlik, farovonlik va hayot ramzi hisoblanadi. Shunga o'xshash ramziy ma'no o'zbek xalq madaniyatida ham mavjud bo'lib, anor baraka va rizq timsoli sifatida talqin qilinadi. "Giovannin senza paura" ("Qo'rqmas Jovannino") sarlavhasi jasorat va qo'rqmaslik g'oyasini ifodalaydi hamda mazmun jihatidan o'zbek ertaklaridagi "Kenja botir" obrazi bilan yaqinlik kasb etadi.

Shunday qilib, o'zbek ertaklari sarlavhalarida jamoaviylik, oilaviy qadriyatlar va axloqiy fazilatlar ustun bo'lsa, italyan ertaklari sarlavhalarida individual qahramon obrazi, tabiat va mifologik ramzlar ko'proq uchraydi. Har ikki xalq ertaklari sarlavhalari esa milliy madaniyat va xalq dunyoqarashining muhim ifodachisi sifatida xizmat qiladi.

O'zbek ertaklaridan "Zumrad va Qimmat" ertagining sarlavhasi ezgulik va yovuzlikning qarama-qarshiligiga asoslangan. Zumrad obrazi poklik, halollik, mehnatsevarlik va sabr timsoli bo'lsa, Qimmat obrazi hasad, manmanlik va ochko'zlikni ifodalaydi. Shu orqali sarlavhaning o'zidayoq ertakning asosiy g'oyasi namoyon bo'ladi.

"Uch og'a-ini botirlar" sarlavhasida esa uch sonining ramziy ma'nosi, aka-uka birdamligi va jasorat konsepti mujassam. Turkiy xalqlar folklorida uch soni muqaddas sonlardan biri hisoblanadi va ertaklarda ko'p uchraydi.

Shuningdek, "Ochil dasturxon" sarlavhasida dasturxon o'zbek xalqining mehmondo'stligi, saxovati va barakasi, "Susambil" ertagi sarlavhasida esa adolat, farovonlik va orzular mamlakati haqidagi xalq tasavvurlari aks etadi.

Italyan ertagi hisoblanmish "Rosmarina" sarlavhasida rozmarin o'simligi poklik, sadoqat va oilaviy baxt ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu o'simlik italyan xalqining urf-odatlar va marosimlarida muhim o'rin tutadi.

"Le tre melagrane" ("Uchta anor") sarlavhasida anor hosildorlik, hayot va farovonlik timsolidir. Ushbu ramziy ma'no o'zbek xalq madaniyatidagi anor haqidagi tasavvurlar bilan hamohangdir. "Giovannin senza paura" ("Qo'rqmas Jovannino") sarlavhasi jasorat va qo'rqmaslik g'oyasini ifodalaydi. Ertak qahramoni mardligi va qat'iyati bilan o'zbek xalq ertaklaridagi Kenja botir obraziga yaqin turadi. "Il pescatore" ("Baliqchi") sarlavhasida mehnat, sabr va tabiat bilan uyg'un hayot tarzi ifodalangan. Bu obraz O'rta Yer dengizi hududidagi italyan xalqining turmush tarzini aks ettiradi. "Il Re Porco" ("Cho'chqa podsho") sarlavhasi esa mifologik obrazga asoslangan bo'lib, unda sinov, o'zgarish va ramziy ma'nolar mujassam. Ushbu obraz o'zbek ertaklarida deyarli uchramaydi, bu esa ikki xalq madaniyati va diniy qarashlaridagi farqlar bilan izohlanadi.

Umuman olganda, qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek ertaklari sarlavhalarida oilaviy qadriyatlar, jamoaviylik va axloqiy fazilatlar yetakchi o'rin egallaydi. Italyan ertaklari sarlavhalarida esa individual qahramon, tabiat unsurlari va mifologik timsollar ko'proq uchraydi. Shu bilan birga, har ikki xalq ertaklarida ezgulik, jasorat, adolat va mehnatsevarlik kabi umuminsoniy qadriyatlar umumiy lingvokulturologik konseptlar sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Maslova, V. A. (2001). Lingvokulturologiya. Moskva: Akademiya.
2. Vorobyov, V. V. (1997). Lingvokulturologiya: teoriya i metody. Moskva: RUDN.
3. Teliya, V. N. (1996). Russkaya frazeologiya. Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. Moskva: Shkola «Yazyki russkoy kultury».
4. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. New York: Oxford University Press.
5. Propp, V. Ya. (1968). Morphology of the Folktale (2nd ed.). Austin: University of Texas Press.
6. Calvino, I. (1956). Fiabe italiane. Torino: Giulio Einaudi Editore.
7. Mahmudov, N. M. (2012). Til va madaniyat. Toshkent: Akademnashr.
8. Safarov, Sh. S. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
9. O'zbek xalq ertaklari. (2016). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
10. Rahmatullayev, Sh. (2019). O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent: O'qituvchi.
11. <https://www.treccani.it/>
12. <https://www.grimmstories.com/>
13. <https://scholar.google.com/>
14. <https://www.jstor.org/>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.